
Ro'yxatga oluvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash qanday amalga oshiriladi?

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi 710-son qarorining 1-ilobasiga binoan aholini ro'yxatga olish jarayonlariga jalb etiladigan shaxslarning asosiy ish va o'qish joylaridagi lavozimi va o'rtacha oylik maoshlari vastipendiyalari saqlab qolinadi. "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining [24-moddasiga](#) muvofiq aholining ayrim toifalariga nisbatan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish tegishli tashkilotlar va muassasalarning vakolat bergan xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

Aholining ayrim toifalarini ro'yxatga oluvchi xodimlar o'rtacha oylik maoshlari saqlanib qolinganda ishga jalb qilinadi. Ro'yxatga olish ishlarida ishtirok etgan xodimlar faqat o'z ish joylaridan qo'shimcha rag'batlantirilishi mumkin.

Aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish hamda natijalarni qayta ishlashga jalb etiladigan shaxslar mehnatiga haq to'lash ushbu Nizomga [1-ilovaga](#), sinov tariqasida aholini ro'yxatga olish jarayonlariga jalb etiladigan shaxslar mehnatiga haq to'lash [2-ilovaga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

Agar shartnomada ko'rsatilgan ish muddati tugamasdan avval shartnoma bekor qilinadigan bo'lsa, ish haqini hisoblash haqiqiy ishlangan muddatga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Aholini ro'yxatga olish jarayonlarida faol ishtirok etgan shaxslar samarali mehnat faoliyatidan kelib chiqib Qo'mita raisi hamda hududiy komissiyalarning qaroriga asosan mukofot yoki qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin. Aholini ro'yxatga olishga jalb qilinadigan shaxslar mehnatiga haq to'lash budget mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi. Aholini ro'yxatga olishga jalb etilgan shaxslar bilan mehnat munosabatlari va fuqarolik-huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Mehnat [kodeksi](#), O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik [kodeksi](#) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

2022-09-30 14:30:58